



## BUXORO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

## Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar vaqulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rniда, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




### Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vegar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

## Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

*(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)*

<b>17 146</b>  <b>Mas'uliyati cheklangan jamiyat</b>	<b>2 657</b>  <b>Oilaviy korxona</b>	<b>161</b>  <b>Unitar korxona</b>
<b>3 992</b>  <b>Xususiy korxona</b>	<b>39</b>  <b>Aksiyadorlik jamiyat</b>	<b>194</b>  <b>Boshqa korxonalar</b>




### Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Faoliyat ko'rsatayotgankorxona va tashkilotlar soni (1- sentabr holatiga ko'ra)



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



### Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat—aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlarini bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlarini bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-avgust oylarida, birlikda)




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-avgust oylarida)




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi

(2020- yil yanvar-avgust oylarida, umumiyl sonidagi ulushi)




2020- yilning yanvar-avgust oylarida 3 596 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 2 445 ta, xususiy korxonalar – 277 ta, oilaviy korxonalar – 757 ta va boshqalar – 117 tani tashkil etdi.

## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar (2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



*Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **11,2** foizga oshdi*



### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



### Mikrofirmalar



### Kichik korxonalar



### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



### Oilaviy korxonalar




### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **27,3** foizga oshdi




### Xususiy korxonalar




O'tgan yilga nisbatan **0,6** foizga oshdi



## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Oilaviy korxonalar soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra 2 657 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 103 taga yoki 171,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 477 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 006 taga yoki 168,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 757 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 197 taga yoki 135,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra 298 tani tashkil etib, ulardan 286 tasi yoki 96,0 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 50 taga yoki 120,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-avgust oylarida viloyatimizda 22 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-avgust oylarida, birlikda)



## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimidagi soni


(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni (2020-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni  
(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)**

	<b>Jami</b>	<b><i>shundan:</i></b>	
		<b>qo'shma korxona</b>	<b>xorijiy korxona</b>
<b>Buxoro shahar</b>	<b>145</b>	<b>74</b>	<b>71</b>
<b>Kogon shahar</b>	<b>15</b>	<b>12</b>	<b>5</b>
<b><i>tumanlar:</i></b>			
<b>Olot</b>	<b>7</b>	<b>1</b>	<b>6</b>
<b>Buxoro</b>	<b>12</b>	<b>9</b>	<b>3</b>
<b>Vobkent</b>	<b>7</b>	<b>6</b>	<b>1</b>
<b>G'ijduvon</b>	<b>11</b>	<b>6</b>	<b>5</b>
<b>Kogon</b>	<b>25</b>	<b>21</b>	<b>4</b>
<b>Qorako'l</b>	<b>8</b>	<b>3</b>	<b>5</b>
<b>Qorovulbozor</b>	<b>9</b>	<b>4</b>	<b>5</b>
<b>Peshku</b>	<b>16</b>	<b>5</b>	<b>11</b>
<b>Romitan</b>	<b>10</b>	<b>4</b>	<b>6</b>
<b>Jondor</b>	<b>12</b>	<b>7</b>	<b>5</b>
<b>Shofirkon</b>	<b>9</b>	<b>6</b>	<b>3</b>

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahrida 145 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 50,7 %), Kogon shahri 15 ta (5,2 %) Peshku 16 tani (5,6 %), Kogon tumani 25 ta (8,7 %), Buxoro 12 ta (4,2 %), hamda Jondor tumanlarida 12 tani (4,2 %) tashkil etadi.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**

*(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)*



2017-2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga-vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayatganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagisi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsnинг (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Buxoro viloyati  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

**Tel.: (65) 223-83-20**